

83
N 79

MADINA NORCHAYEVA

KAFTDAGI YO'L



KITOBIM



BIRINCHI

83	3363
№ 75	M. Norchayeva
	Kuhtdagi yul

Китоб шу ерда кўрсатилган муддатдан
кечиктирилмаган ҳолда топширилиши шарт

Илгариги берилмалар микдори _____

--	--


83
N 79

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJOD" JAMOAT FONDI

MADINA NORCHAYEVA

*K*AFTDAGI YO'L

She'rlar



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

Nashr uchun mas'ul:
G'ayrat MAJID,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi
o'rinbosari


Mas'ul muharrir:
Aziz Said

Nafaqat dildagi hissiyotlar, balki ruhiyatdagi ajabtovur kechinmalarni-da teran tahlil qilish va mohir musavvir-lardek serjilo ranglar vositasida tasvirga tushirish uchun kishida alohida tug'ma iste'dod bo'lishi lozim. Bu jihatdan Madinaning manglayiga monand mo'yqalami ham yarqirab turibdi. Qolaversa, hayotning ibtidosi va intihosi haqidagi, ruhiyat kengliklarida parvoz qilib, bu makonning har bir qarichini tadqiq qilaroq chiqargan falsafiy xulosa va mu-lohazalari uchinchi ko'zining naqadar o'tkirligidan dalolat beradi.

Yosh shoiraning ruhiyat manzillariga sayohatga chiq-qan she'riyat muxlislari olam-jahon taassurot bilan qayti-shi shubhasiz. Sayohatga marhamat!

Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining
Zomin seminarida nashrga tavsiya qilinib, "Ijod" jamoat
fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-6472-6-8



© M. Norchayeva, 2020
© "Adabiyot", 2020

PARVOZGA SHAYLANGAN QUSH RUHIYATI

Yosh ijodkorlarning Shahrisabzda bo'lib o'tgan "O'zbekiston bahori" Respublika festivalida she'riyat muxlislari qatorida men ham o'zimga yangi nomni kashf etgan edim – Madina Norcha-yeva. Negadir o'sha paytda u qiyofasi, ruhiy hola-ti bilan ucholmayotganidan iztirob chekayotgan qush taassurotini qoldirgandi menda. She'rlar o'qi-di. Bu she'rlarni his qilish uchun oddiy she'rxon bo'lish kifoya qilmasligi ko'rinib turardi. Ramz-u istioralar, tashbehlar tilini tushunadigan, so'zning ishoralarini his qiladigan, tasavvur qobiliyatiga ega she'rxon uchun edi bu she'rlar.

Sen afsun istaysan...

Tunning qulog'iga taqilgan zirak

Dashtning ko'zlariga og'ir qadalar.

Adirlar yodini to'zg'itsa kerak,

Namozshom uyiga qaytgan podalar.

Ilk taassurotim aldamadi. Madinaning keyin-gi she'rlari, Yozuvchilar uyushmasi va "Ijod" fon-di tomonidan "Birinchi kitobim" ruknida nashr-ga tayyorlangan ushbu to'plami, Yozuvchilar uyushmasining "Zomin" seminarida, Respublika Yosh ijodkorlar kengashi tomonidan o'tkazi-layotgan she'riyat anjumanlaridagi g'alabalari va nihoyat Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga munosib ko'rilishi uni so'z va she'rni taqdir deb bilgan iste'dodli shoira sifatida, bugun adabi-

yotimizga kirib kelayotgan yoshlarning oldingi safida ekanligini isbotlab turibdi.

Madina yurtga mehrini, shoira sifatida dunyoga savollarini, hissiyotlarini faqat o'zigagina xos bo'lgan tuyg'ular tili bilan izhor qilyapti. Bahor aslida o'z go'zalligi va mo'jizalari bilan yuraklarni kuylatadigan fasl, Madinaning musavvir qalbi esa ona yerning peshonasiga bitilgan maktublar suratini chizadi:

O, aprel...

Dashtning lablariga toshadi uchuq,

Sajdadan boshini ko'tarsa qirlar.

Darbadar o'g'ildek kuttirdi buncha

Ona tuprog'ini ko'hna yomg'irlar.

4

She'rlardagi satrlar tuzilishi, ifoda tarzi, qo'llanilayotgan so'zlar shoira haqida ko'p narsani aytib beradi. Uning tasavvur va xayolot olamining kengligi, tajribasi va iste'dodini namoyon qiladi. Madinaning o'zi emas, tashbehlari, o'xshatishlari gapiradi:

Oy gulchambar to'qir barmoqlarimdan,

Erkimni yulduzlar cho'qir betinim.

Oppoq etik kiygan suluv daraxtlar

Bazmida uchrashgan edik biz ilk bor.

Ey, horg'in kuychiday tolgan kunlarim,

Bag'ringga umrimni ekdi shamollar.

Oy – oltin qoshiqcha,

Qo'zg'atadi bir finjon tunni.

Faqat og'rinadi huv bukri daraxt,

Yelkasida g'amlar qilayapti to'y.

*Kaftimga tirik yo'l ko'mildi
Adashgan karvonlar o'tgani.
Zamharir ro'molin tang'iydi zamin,
Cho'qqilar bo'g'zida olovli simob.*

Bunday tashbehrlarning har biri bir go'zal manzara, surat. Ularni sharhlashning, izohlashning ham, qanday dunyoga kelganini tahlil qilishning ham hojati yo'q. Shoira o'z hissiyotlari so'zanasiga gullar qadab qo'yayotganga o'xshaydi. Qolaversa, ba'zi shoirlar dunyoga musiqiy nigoh bilan, ba'zilar roviyona, ba'zilar musavvirona nigoh bilan nazar tashlaydilar. Yuqoridagi singari ko'plab o'xshatishlardan ko'rinadiki, Madina bir she'rida "Men-ku, musavvirman, o'lik ranglarning//Ruhlarini tutib turibman kaftda" deb aytganiday uning aksariyat tuyg'ulari tasviriy nigohidan o'tib qog'ozga tushadi. So'zim avvalida Madinani ruhiy holatidan ucholmayotganidan iztirob chekayotgan qushga o'xshatganim haqida aytgandim. Bu sezim bejiz emas ekan. Uning aksariyat she'rlaridagi oy, quyosh, yulduzlar timsollari ham, "Qushga aylanmagan odam haqida", "Qaldirg'ochman", "Boraman", "Kuz - yog'mur shevasinda bitilgan maktub", "Endi qushsan, endi odam men", "Qafas sindi" kabi o'nlab she'rlari ham parvozga shaylangan qushning ruhiyatidan, orzularidan mujda beradi.

Aziz SAID,

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
shoir.*

QUSHGA AYLANMAGAN ODAM

Qara, men umringda uchib yuribman,
Nomsiz qush – qanotim yashildir, yashil.
Ism qo'y, tasdiqla yaralganimni,
So'ngra ko'zlaringning qa'riga yashir.

Yashirgin zamon-u makondan nari,
Yorug' tafakkurning olmos tig'iman.
Balki intiqomning, balki tolening
Vahiysi, shovqinsiz hayqirig'iman.

Oy gulchambar to'qir barmoqlarimdan,
Erkimni yulduzlar cho'qir betinim.
Meni tanidingmi, har bahor bedor,
Bog'ingda unguvchi maysa men edim.

Oppoq etik kiygan suluv daraxtlar
Bazmida uchrashgan edik biz ilk bor.
Nechun parishonsan, tutqun o'ylarning
Qafasini chil-chil sindirib yubor.

Seni deb ming marta dunyoga keldim,
Ammo sen, ammo sen... taniy olmaysan.
Yodingni to'zg'itgan suratlar aro
Nechun siyratimni sevib qolmaysan.

Poyingga cho'kaman yuragim og'rib,
Qanotlarim o'sa boshlar daf'atan.
Gar meni eslasang, aslo o'kinma,
Sen ham qushga aylan, ey aziz odam.

* * *

O, aprel...

Dashtning ko'zlariga to'larmi hadik,
Sajdadan boshini ko'tarsa qirlar.
Darbadar o'g'ildek kuttirdi buncha
Ona tuprog'ini ko'hna yomg'irlar.

Men-ku, musavvirman, o'lik ranglarning
Ruhlarini tutib turibman kaftda.
Bu taqir sayhonlar peshonasiga
Maktub bitib ketgan eding qay harfda?

Intizorlik, zorlik ulg'ayib borar,
Ulg'ayar musavvir ko'nglimda alam.
Qanday o'ksinmayin, axir, ona dasht,
Qaqragan labingga suv tutolmasam?!

O, aprel.

Biz kutgan bulutlar gulob yog'dirar,
Bari mushtoqliklar topadi qazo.
Men shunda zang bosgan ko'ksingni ochib,
Kuyuk yuragingni chizaman, dunyo.

ILK KROMANYON ODAM VA MEN

1

Yurar yo'lim tumanga cho'mgan,
Loy ilingan etiklarimga.
Toshni toshga urib,
Boshni toshga urib,
So'zni boshga urib yig'layman.
Olov kerak bitiklarimga.
Cho'g' solingan hamyoning qani,
Muzlik davri solar vasvasa?
Ibtidoiy odam, qara, biz
O'layapmiz olov bo'lmasa.

2

Bir kaft nurga yuzingni chayib,
Tosh ustiga cho'kasan og'ir.
Ibtidoiy do'stim, baxtlisan,
Intihoiy emassan, axir.

3

Sen ayiqni yengasan jangda,
Tabiatdan olganing halol.
O'ylamaysan, borliq qay rangda,
O'ylamay baxt topding, ehtimol.
Biz dillarni yanchib o'tyapmiz,
Yong'oq emas, chaqiladi ong.
Turmush butkul o'zgargan, faqat,
Tunlar o'sha va o'shadir tong.

Quyuq tutun yo'limiz ko'mgan,
 Poyandoz – kul, qadamlar og'ir.
 Ibtidoiy odam, yonyapmiz,
 Yomg'ir kerak bizlarga, yomg'ir.

* * *

Quyosh – oltin olma,
 Eng shirin olma,
 Oqib borar.
 Shoshma,
 Seni lablarimga bosay kuysam ham.
 Sen ishqsan, sen mensan.
 Botma, qismatingga botma.
 Bu qora quduqda
 Senga nima bor?
 Yulduzlar ko'zingdan uchgan tushlaring.
 Qushchalar yodiga sanchilib qoldi
 Kunduz – daraxtidan uzilishlaring.
 Qara, yana ovga otlandi oqshom,
 Singib ketma, sinib ketma.
 Meni bahorlarga ishontir,
 Ishontir, yuragi senga mushtoq deb.
 Ishontir, unutmok – o'lmoq deb.
 Ey, horg'in kuychiday tolga kunlarim,
 Bag'ringga umrimni ekdi shamollar.
 O, o'roqchi hislar..
 Rashkchi ko'zlarim,
 Chumoli tashigan muhabbat.

Tegirmon sovurgan xayollar.
Quyosh – so'nggi olma...
Eng shirin olma.
Cho'kma,
Qurigan quduqda senga nima bor?
Chanqog'ingni esa kaftingda tutib,
Kulrang kaptarlarga yedirib yubor.
Ular ko'zlaringni yopsa, ajabmas,
Ufq lablarin artgan qanotlarida.
Balki, oshiq bo'lgan,
Balki, ishq bo'lgan
Ular ham avvalgi hayotlarida.

* * *

Xayolingni yoqib qo'yibman shiftga,
Xonamga kirolmay darg'azab oqshom.
Faqat manov daraxt uxlashim kutar,
Ildizin kovlaydi ertalabgacha.

Sug'ursa, qaygadir bosh olib ketar,
U kenglik istaydi, hurlik istaydi.
Mag'ribni, mashriqni bilgisi kelar,
Suluvga aylanib, joniga aziz
Kimningdir tushiga kirgisi kelar.

Armonimiz bitta,
Orzuyimiz bir.
Umrinni sharobday simiradi vaqt.
Sening ildizing bor, mening yuragim,
Ayt, kimning qismati og'irroq, daraxt?

* * *

G'am quyilgan qadahman
Qismatning qo'llarida.
To'kilgayman tomchilab
Bir ishqning yo'llariga.

Ruhim – tuproqning tushi –
Ildizi cho'g' ichgan gul.
Daraxtlarning yodini
Olib uchmish taxayyul.

Barglar qo'rquvga cho'kkan,
Soyalarga inmish jon.
Qaylardadir yashar u,
Xuddi mendek bemakon.

Oyning kulgichlaridan
Sizib chiqar sovuq tun.
Yulduzlarning ko'zidan
Isyon elanar beun...

Men gunohman, tavbam – U,
Usiz yuzim qarodir.
Yashin tushgan tut kabi
Umrim kuyib borodir!

O, sahih tushlarimdan
Esib o'tgan hur nasim.
Nahot uni tanimas
Bu ishqtalab qismatim?!

* * *

O, ruhimning hayqiriqlari,
Nechun soqov bo'lib tug'ilding?
O'zdan olis ketganim sari
Qanotlari kuyib tug'ilding.

Dilgir kecha, dilsiz daraxtlar,
Qay bir gunoh tilingni uzdi?
To tonggacha oyning yuzini
Timdalaydi itlarning ko'zi.

Oyda sas yo'q. Menda sado yo'q,
Simiraman tunni hovuchlab.
Olti yoqda yuribdi daydib
Meni tashlab ketgan tovushlar.

Musofirman, xumorim hu-u-uv dasht,
Yuzlarini bahor o'pmagan.
Va tizzasi o'yilgan qirlar
Menday – undan olis ketmagan.

Qidirganim – bir yashil taskin,
Oltin kosov – dilni qo'zg'ayman.
Shahrisabz, gar bersang izn,
Sendan bitta yaproq uzgayman.

So'ng ketarman safarim qarib,
Butlanguncha dil siniqlari.
O, mezbon yurt, senga omonat,
O'ng ruhimning xo'rsiniqlari.

FERUZAGA

Kiprigimni vatan qilgan qushlar uchdi,
Namozshomni bedor kutib tushlar uchdi.
Aqlim uchdi... Sarkashlanib hushlar uchdi,
Qadamlarim og'irmidi, Feruzajon?

Ruh suyansa xarsanglarga, dard etarmi,
Soya o'lsa, mozor topmay kun o'tarmi,
Ozor bermay, ozor topmay ishq bitarmi,
Yo'llarimiz chag'irmidi, Feruzajon?

Sen suyangan oqshomlarning yelkasi tosh,
Men sig'ingan dunyolarning ro'yosi fosh.
Qarog'ingdan shodlik topmay qarog'im g'ash,
Umidimiz sag'irmidi, Feruzajon?

Nimpushtirang tirnog'imda xatlarim bor,
Nigohlarim sharhlab berar, dodlarim bor,
Bu dunyoni bir she'r etib yodlarim bor,
She'rli tonglar sohirmidi, Feruzajon?

Tovonimga yopishgan loy xatodandir,
Tun ingrog'in doyasi kuy satodandir,
Xudodandir, Qismatimiz Xudodandir.
Avvalmidir, oxirmidir, Feruzajon.

* * *

Sen afsun istaysan...
 Tunning qulog'iga taqilgan zirak
 Dashtning ko'zlariga og'ir qadalar.
 Adirlar yodini to'zg'itsa kerak
 Namozshom uyiga shoshgan podalar.
 Sen afsun istaysan...
 Bolalari och,
 Tog'orada umrin qoradi ayol.
 Gulgun qiz chog'iga, kelin chog'iga
 Tushlarida yig'lab boradi ayol.
 Sen afsun istaysan...
 Sahroyi shamol
 Labingda so'zlarni ketar quritib.
 Bolalik hech kimga aytmas, ehtimol,
 Kepak kulcha yegan go'dak sirini.
 Oy – Tunning qulog'iga taqilgan zirak,
 Nogoh yulqib olar kumushbadan tong.
 Nogoh titrab ketar mudragan yurak,
 Nogoh mo'jizadan umid uzar ong.
 Sen nima istaysan?

* * *

Oy – qaqnus pat,
Qaro tunning lablariga o't tutashdi.
To'lqinlaring qanotsifat
Uch, dengizim...
Tushlaringni chulg'aganda parvoz gashti
Uch, dengizim...
Uchib tolga qushlar haqqi
Zil turmushdan
Padarimning yelkalari yag'ir bo'lgan.
O'n yettida chimildiqqa kirgan onam
Hali beshik quchib-quchmay sag'ir bo'lgan.
Chayqab yubor, jom ichinda tirilsin may,
Qaqrab turgan jonsiz tanlar topsin davo.
Turnalarning safaridan zerikkanday,
Ko'zlarini mavhumlikka tikmish dunyo.
Uch, dengizim...
Ruhim senday
She'r ishqida chayqaladi,
Manov dasht ham,
Manov qir ham asli qushdir.
Bag'ri toshday odamlarning zalvori deb
Sho'rliklarim qushligini unutmishdir.
Uch, dengizim.

* * *

Ey sayyodim, el kezding
Yelkangda o'q-yoy bilan.
Baxt gullagan osmonda
Baxt topmagan oy bilan.

Ko'ngil – qaldirg'och ini,
Qismat – o'lchovsiz og'riq.
O'rgat menga yashashni,
O'zdan, o'zimdanda ortib.

Men – senmas,
Men – o'zimmas,
Kimligimni aytib ber.
Zarralanib ketyapman,
Qumligimni aytib ber.

Bir taskin ayt, nurlanay,
Bilay, kimning ohiman.
Ayt, qo'lingda jon bergan
Men nechinchida ohiman?..


* * *

Zarafshon hayqirdi,
Registon kuldi.
Chinorlar bargida uxladi hadik.
Hattoki, bir baliq suv yutib o'ldi.
Telbalik, qadrdon telbalik.

Anov suratlarning tiriklari bor,
Musavvir ko'zimdan tanlayotir rang.
Sen esa tog'larni uyg'otib yubor,
Agar sukunatdan, jimlikdan qo'rqsang.

So'ng bazm qilamiz hu-uv bahorgacha,
Maysiz qadahlar ham sochadi jarang.
Siniq ko'ngillarni otamiz o'tga,
Kimni kuydirasan axir, kuymasang.

Bir hovuch dunyoni kaftimga yig'dim,
Musavvir do'stginam, tortmagin hadik.
Axir hislarimga og'irlik qilar
Ko'rgazmada turish suratlaringdek.



* * *

(Qo'rqinchli o'ylarimdan)

Osmon – uzilgan rishtalar qabristoni,
Tirik majruhlarga toptaladi yer.
Pardadek bir tuman qoplar dunyoni,
Ko'chada qarovsiz daydib yurar she'r.

Gumon – men... Soyaday tovushsiz, hissiz,
Yopiq eshiklarga kalit solguvchi.
Baxt – gado. (Ostonam oldida sassiz)
Haydadim, qolgisi bor edi, qolgisi.

Oy – oqshom qozonida chaqilgan tuxum,
Faryod chekolmayin qovurilar jim.
Vijdon, tirikmisan? Borliging muhim,
Faqat kimligingni aytib berar kim?



* * *

Huvillab boryapman, nurab boryapman,
Qismat – umidlarga chang solgan burgut.
Yuksaklik vaslini anglatib unga
Qoyalarga urib etadi nobud.

Qattol raqiblardek beayov jangda,
Shamollarni bo'g'ib o'ldiradi vaqt.
Men aytib beraman, baxt qaysi rangda
Va nega yig'lashni bilmaydi daraxt.

Faqat sen yashab tur, yo'lsiz umrimning
Hali men yetmagan sarhadlarida.
Menga xatlar yozib ko'tar ko'nglimni
Baxt ufurib tursin suratlaringdan.



* * *

Tunda sochim anhorday oqdi,
Ko'zlarimdan to'kildi bir cho'g'.
Hatto oyning aksi mavjlanar,
Faqat tilla baliqchalar yo'q.

Tuprog'imni quchdim. Yig'ladim.
Barmoqlarim ajriqday o'sdi.
Sendan olis ketmayapman, yo'q,
Men o'zimdan ketyapman, do'stim.

Asrolmaymiz bu o'lik qushning
Patlariday to'zg'igan hisni.
Unib chiqar tog'-u toshlardan
Unut bo'lgan borliqning ismi.

* * *

“Bir bor ko'zlarimga majnun bo'lib boq”
Men bo'lib shivirlar yaproqlar hazin.
U esa tomosha qiladi uzoq
Bulutlarni kesgan shafaqlar aksin.

Tushlarimdan uchib ketgan musicha
Chertadi qalbining oynasin tiq-tiq
Va ilib qo'yilgan yozuvni ko'rib
Yig'lab yuboradi, “Hech kimga joy yo'q”.

* * *

Do'stim, adashtirdi bu yo'l beayov,
Ko'ngil ham ro'shnolik bermadi bizga.
Bir kuyning izmida izg'idim yayov,
Aylanib o'zimday devona hisga.

Kuyukib oqardi ochunning sochi,
Beqismat shamollar cho'kkaladi tiz.
Gohida sengacha ortimdan bordi
Xizr nazar qilgan tushlarim beiz.

Majolsiz tunlarga ulashdi titroq,
Goh daqqiyunusdan qolgan unlarim.
Meni yaqinlashtir o'zimga ko'proq,
Mening mensizlikda o'tgan kunlarim.



...ga

Jonim omon. Omonmi joning?
Osudami umring kuylari.
Bizni endi ayro etolmas
Bu olamning hasadgo'ylari.

Qadamida qadamlarim bor,
Chorig'ini sudrab o'tar vaqt.
Menda qolgan yuraging bilan
Qanday to'kis yashaysan, ey baxt.

* * *

Oy – oltin qoshiqcha,
Qo'zg'atadi bir finjon tunni,
Yulduzlarning aylanar boshi,
Meni yaxshi ko'rishing chinmi?

Janubda baxt meva tugganday
Eshkak tortar turnalar safi.
Osmon – dengiz, to'lqinlar o'ynar
Onamning qon bosimi kabi.

Men hanuz hol so'rolganim yo'q
Na qismat, na onam, na undan.
Ishq yutoqib sipqorsa tunni,
Tug'ilaman men o'sha kunda.

* * *

Osmon – ko'kko'l,
Oy – nilufar...
Yulduzlar – jim suzib yurgan baliqchalar.
Ishonganim, ishon endi ertaginga,
Toleyimga qarmoq otar baliqchilar.

Adashtirdi ko'zlaringning xaritasi,
Lomakon ishq qismatimdan o'zib ketdi.
Sovuq yellar keltirganda mayin sasing,
Bir so'z demay tilkalandim,
To'zib ketdim.

Qamishzorga nazar qilding – u nay bo'ldi,
Goh tegramda otgan tonglar tunday bo'ldi,
Guvohim sen – ismatimning imlogari,
Bari shunday, shunday bo'ldi, shunday bo'ldi.

Osmon – ko'kko'l, oy – oq qayiq suzib borar,
Tun chayqalar eshkaklarning shiddatida.
Ishonganim, unib chiqdim bu kun, qara,
Sen siylagan qamishlarning suratida.

* * *

Ey olis samoda porlagan yulduz,
Endi senga mudom qo'lim yetmasmi,
Sensiz bu kechalar topmasmi kunduz,
G'amlar kamaymasmi, qayg'u ketmasmi?

Yo'ldosh bo'lmaysanmi adashganimda?
Dengizlar ustidan yurib o'tyapman,
Baliqlar o'padi tovonlarimdan,
Kuydirar, tillari alangamikan?

So'ng yona boshlayman birdan lovullab –
Sen tomon talpingan bir quchoq gulxan.
Tog'larning bag'ridan suzib boryapman,
Manovi cho'ng qoyamas,
Bu oppoq yelkan.

Ishongin, hijronim visoldan totli,
Yo'l tugar qoshingga yetganim oni.
Unutma, men seni mangu sevaman,
Mangu sevganimdek qodir Xudoni.

* * *

Osmonning ko'zini cho'qiydi bir qush,
Oy oqib tushadi nogahon yerga.
Tangrim, sendan o'zga yetolmas hech vaqt,
Falakning ko'zida bekilgan sirga.

Ko'ngil – muruvvatdan tug'ilgan oqqush,
Titroq qanotlari ulashguvchi jon.
Yo'l yurmay manzilga yetgan yo'lchiday
Umrin dovdirdiydi beso'z va beshon.

Faqat og'rinadi huv bukri daraxt,
Yelkasida g'amlar qilayapti to'y.
Ochunga beizn kelganing chinmi,
Meni uzoqlarga boshlab ketgan kuy?..

25

* * *

Tun – siyohdon.
Oy – patqalam.
Nigoh titrar
Chekolmayin sardaftarga imzosini.
Zamin yo'ldir, ketar bir juft yurakliklar
Muhabbatga almashgudek dunyosini.

Noyabrning tugab borar ertaklari,
Yor ishqining isbotini istar suluv.
Yupatasan silab mezon – sochlarini,
Sen bahorsan.
U kuz edi... Kuz edi u...

UKAMGA

Oydin tunga lim to'lgan ovul
 Kaftdek qishloq va oqlangan uy.
 Aka, senga bo'lganmi og'ir
 Nayqamishdan yangraganda kuy?
 Onamiz – nayqamish.

Yuragingga tushirganmi chok,
 U kunlarning zalvori – og'ir.
 Opa, sening ko'zlaring g'amnok
 Kim ham butkul qush bo'lgan, axir.
 Otamiz – yarimqush.

Sen kipriklar ustida o'sding,
 Osmon, deya yomg'irpo'shlarni.
 Endi qaddin ko'tarmoq sendan
 Nayqamish-u yarimqushlarni.



QALDIRG'OCHMAN

Qaldirg'ochman -
Oyning nigohidan uchgan pari qush,
Tuning tushlarini to'zg'itgan sabo.
Tog'lar zamin tilin bog'lab turgan tish,
Chug'urlasam, joning og'rirmi, dunyo?

Qaldirg'ochman,
Qaro qoshlaringni etdim ziyorat
Umringni qaysidir ayyomida jim.
Qaqroq lablaringda unsin deb oyat
Senga bahorlarni yetaklab keldim.

Qaldirg'ochman,
Kesib uchdim ko'ngling zanjirlarini
Tutqun hislaringga keltirdim sharaf.
Elchilik onimda bahorni sezsang,
Men kuzni o'ylayman ko'zingga qarab.

Qaldirg'ochman,
Ildizlardan sizib bargga yetgan ishq.
Osmonni to'ldirib gullaganda, yor,
Chanqovuz tovushli kipriklaringda
Bahorsiz kunlarga o't qo'yib yubor.

OROLDAGI AYOL XIRGOYISI

Tanidingmi?!

Tushlaringda suv paridek suzgan edim,
To'liqin bo'lib bandlaringni uzgan edim,
Suv chalpitib xayolingni buzgan edim,
Tanidingmi?!

Tanidingmi?!

Men ham ma'yus suv o'timan,
Baliqlarning faryod to'la sukutiman.
Yiroqlashib ketding diydor hududidan,
Tanidingmi?!

Gohi qarmoq solib bag'ring tig'laganman,
So'ng baliqchi choldek o'ksib yig'laganman.
Yo'ling poylab sohilingda uxlaganman,
Tanidingmi?!

Tanidingmi?!

Yillar bizni qartaytirgan,
Qum qoplagan cho'llar bizni qartaytirgan.
Axir, menman, bir zamonlar eshkak urgan,
Tanidingmi?!

Tanidingmi?!

Bolang edim – dalli siyoh,
So'ng ulg'aygach, yoringday bo'p ko'rindim goh.
Mohiboyni yutib ketgan, ey, g'ayur moh,

Tanidingmi?!
Qaytmaysanmi?!
Bo'g'zim to'la "uv-v!" keltirdim...
O'ttiz to'qqiz g'am yomg'irin tiriltirdim.

Men qoshingga uch ko'zada suv keltirdim...
Mayli, bo'ron ko'tarmasdan ohista,
Jim-m-m qaytmaysanmi?!

* * *

Jim ildiz otasan qorachig'imda,
Toshoyina yuzida jimirlar qo'rquv.
Musiqor parishon kuylar ichimda:
"Soyalar soyaga suyanmaydi-ku".

29

Yelkasida ko'za ko'targan daraxt
Shafaqdan musallas to'latib qaytar.
Yo'llar tebranadi behush, befarah
Tomiriga uyqu quyilgan paytlar.

Tushlarimga ro'mol o'raydi oqshom
Dashtning ko'ylagini dorga ilgan qiz.
Musiqor kuylashdan to'xtamas hamon:
"Demak, "biz" bo'lishga yaralmaganmiz!.."

* * *

Boraman.
 Bizni adashtirgan yillar oralab
 Jingalak sochimga taqasan yalpiz.
 So'ng ortga qaytaman...
 Kimni qoralab
 Yolg'iz.

Men takror boraman
 Bu ne jasorat...
 O'tmishga sudrayman vaqt millarini.
 O'g'irlab qaytaman...
 Derazangdagi
 Baxt gullarini.

O, yana boraman
 Bu qanday tahqir..
 Ko'zimdagi bari tomchilar ozod.
 Nogoh qo'llarimdan tutadi taqdir
 Kishanband etadi jismimni hayot.

Baribir boraman
 Hech bo'lmaganda
 Ruhimni don kabi yutganda bir qush.
 Sen titroq kaftingda ushoq tutasan
 So'ng uchib ketaman
 Qaygadir sarxush.

* * *

Mening osmonimga gulchambar taqdi
Vidoga sozlangan qushlar ovozi.
Makonsiz lo'lidek, o, ko'char vaqti
Daraxtlar kaftiga surar xinosin.

Horg'in yo'laklarni yuvib o'tdi sel,
Kuz – sira titrog'i bosilmagan g'am.
Libosim alanga,
Tiynatim yomg'ir
Seni yondirmadim...
Gullatmadim ham.

Mening osmonimda chaqinlar suzdi,
To'fonni simirgan to'lqinlar – yo'lbars.
Qaysidir ontiga qasamin buzdi
Mazlum qushlarini uchirdi qafas.

Makonsiz daraxtlar ketdilar qulab,
Libosim alanga...
Tiynatim tuyg'u.
Vidoga shaylangan fasl oralab
Kimnidir, kimnidir izlab ketdi u.

* * *

Zaminning tilini bog'laydi
 Kuzakda adashgan mezonlar.
 Daraxtlar ko'nglini dog'laydi
 To'kilgan yaproqlar – so'zona.
 Bazm etmish
 Bo'zimda chiltonlar,
 Yor desam
 Havoda surati.
 Ko'zimda uyg'ondi vulqonlar
 Tanimda so'ngaklar
 Gulladi
 Dengizlar bulutga cho'mildi
 Chaqmoqni baliqlar yutgani.
 Kaftimga tirik yo'l ko'mildi
 Adashgan karvonlar o'tgani.
 Rangtalosh kunlarni yig'latdik
 Mashshoqning kuyida mavj nadir.
 Qol, dedim qadahni ko'rsatding,
 U ko'hna may bilan to'ladir.
 Bazm etmish
 Bo'zimda chiltonlar...

* * *

Kuz – yog‘mur shevasinda bitilgan maktub
Hijjalab o‘qirkan har bitta baytni,
Qishloqdagi uylar homuza tortib
Yana mo‘rilarga yukingan payti
Turnalar janubga yetib olgandir...

Daraxtlar parishon qizlar singari
Yecharkan sochidan bog‘ichlarini,
Uchirib yuborar gulgun faslga
Qovjirab to‘kilgan sog‘inchlarini,
Turnalar janubga yetib olgandir...

Soylarning labida tiniq kulgilar
Azaliy dardidan bo‘lganday forig‘.
Safdoshtarlarin qumsar ichimda bir qush
Bu gal ham ketmadi ko‘ksimni yorib,
Turnalar janubga yetib olgandir...



* * *

Chizsang
 Huvillagan bo'shliq rasmini,
 Unda o'zing bo'lsang
 Va yana ...
 Bemavrid hislarning yakuni.

So'lg'in binafshaning lablari bilan
 Shivirlasang
 Yomg'ir sasiday.
 Intizor bo'lmasang
 hech kimga
 Egasiz uy derazasiday.

34

Amr etsa,
 Aylansang go'yo tanosuh,
 Qiymatin yutqazsa jamiki shakl,
 Tunning ildizida nurdek kezinsang,
 Hatto tiriklik ham qilmasa daxl.

* * *

Endi qushsan, endi odam men,
Moviy gumbaz qafas shaklinda.
Yaproqlarga nur tomizar oy
Ishq shaklinda, nafas shaklinda.

Tunning juldur libosi to'zg'ib
Yulinganda parcha-parcha ko'k.
Iz tushmagan sohilda izg'ib
To'lqinlarning nigohini o'p.

Va tog'larning etagidagi
Lolalarga botganda yot lab,
Sen izg'irin go'shangalarda
Maktublarni yoqsang bittalab.

So'ng yog'muriy nafosat ila
So'zlashgani chiqsa bahor – kuz.
Chaqinlardan bir qudrat tilab
Bulutlarning orasida suz.

Axir qushsan.
Bobong yig'lagan...
O'sha tunda sayragan qushsan.
Faqat erkni ko'tarolmaydi
Qanotlaring...
Balandroq uchsang.

* * *

Qorachiqlarimdan uchadi
 Polapon musicha – tomchilar.
 Chaqinlar bedov ot – oqshomning
 Kiftiga naqsh solar qamchilab.
 Xush borsin.

Bir quchoq shafaqgul ko'tarib
 Suratning qo'llari charchagan.
 Kechani to'zg'itib yuborib
 Oy uchib ketadi darchadan.
 Xush borsin.

Ertaklar quyilgan qadahga
 Lab bosib xayolga tolga kim?
 U hazin jilmayib yashagan
 Tushlarning nomini yodladim.

Yo'llarni fasllar chizmaydi
 Yetolmay qismatning qa'riga.
 U chiqib ketadi kechadan,
 Bugundan, ertadan nariga.
 Xush borsin.

* * *

Qafas sindi,
Bu erk meniki,
Tun meniki sochlari to'zg'in.
Ruhim endi
Kulcha ilondek –
Oy uxlagan onlarni sezgin.

Keldim dema, cho'chidi borliq,
Izlaringni ichadi shamol.
Maysalarning kulgisi – xorlik,
Undan uning aslin terib ol.

Va ovulning chekkasidagi
G'arib kulba misoli ichkin.
O'sha qalbga sendan keyin ham
Sendek kirib bormasin hech kim.

Qafas sindi,
Yashil ko'z yoshni
Alanganing chanqog'iga sep.
Bori olam qumsasin seni
Hali-hanuz yaralmagan deb.

* * *

Zamharir ro'molin tang'iydi zamin,
Cho'qqilar bo'g'zida olovli simob.
Mashshoq daraxtlarning barmoqlariga
Kecha tug'ilgan oy qo'nar naysimon.

Yerning shoh tomiri ketar yorilib –
Bir daraxt kuylarkan poyida tizlab.
Izhordan to'qilgan shaffof chimmatga
Hayosin o'raydi ma'suma hislar.

Anglamay u chalgan kuyning nomini
(Koshki, ruhing o'tkir nafasga chaysa)
O'ksib tinglaganing – ingroqlar bilan
Sen hamon yashaysan,
Qanday yashaysan?!

Bu ne hol?
Qalbingdan etagin silkib,
Qayta tug'ilmoqni istaydi olam.
Na faryod urasan, na oh chekasan,
Hanuz kimligini bilmagan odam...

* * *

Yomg'ir bo'l,
Ro'molin yuvib ber dashtning
Quyilsang qizg'aldoq kosalari – jom.
Ohangga esh bo'lib huv og'ochlarning
Vujudiga insin tark etilgan jon.

Yomg'ir bo'l,
Sumanbar tushlar qaridi,
Darz ketdi gullarning ko'zgulariga.
Tomchidek sizib kir, dengizning tushi
Tog'larning yig'isi, kulgilariga.

Yomg'ir bo'l,
Chaqmoqlar uchdi inidan,
Bulutlar to'lqindek bog'landi tunga.
Faqat yomg'ir bo'lib eslatish mumkin
Bahordan olislab ketganin unga.

Yomg'ir bo'l...

* * *

Kechalar adashdi, shomlar adashdi,
May emas, qon to'lgan jomlar adashdi.
Ishonsang, bu tanim ruhimning dashti,
Qadahlar jarangi kuy berayotir.

Osmon gulga kirdi, tun yo'lga kirdi,
Manov baxtsiz chinor ming yilga kirdi,
Kim obod etay deb bir dilga kirdi,
Fursatlar behuda to'y berayotir.

Kechalar adashdi, tonglar adashdi,
Ne uchun kurashdik, janglar adashdi,
Ko'zimdan yo'l tilab ranglar adashdi,
Pushaymon o'yimga o'y berayotir.

Ishq – sajjod, ishq – jallod, tavbalarim bor,
Haq degan har dilda Ka'balarim bor.
Ajr Sendan, yuz ming g'avg'olarim bor,
Dilimda bir quyosh bo'y berayotir...

* * *

Ne tong,
Izimizni shudringlar o'pib
Osmon kulgichida quyosh ko'rinsa;
Yo'llarning ko'zini kaftimda yopsam,
Tirilsa;
Unutib qoldirsa vaqt chorig'ini,
Kurtak otib ketsa zanjirlarimiz;
Kiprigim va qoshim arolig'ini
Band etsa ul bir juft qabrlarimiz;
Bormasam
Qarlug'och nigohi bilan
Gul chizsa manglayim yoriqlariga;
Aldasang
"Bir ishqning gunohi bilan
Davo bor" deb dilning og'riqlariga;
Osmon kokilidan tomchilasa may,
Quduqlar fosh etsa zamin ohini;
Qaro umrimizdan
Taqdir indamay
Olib ketayotir tong chirog'ini.
Bu ne tong?!

* * *

Bir yutum shafaqni simirdi quyosh,
 Pushtirang bulutga artdi lablarin.
 Bir ayol tush ko'rdi
 huv jingalak soch,
 G'amdan yiroq bo'lgan go'dak vaqtlarin.

Tun "somon yo'li"ni boshiga yopdi,
 Bekitdi oq sochin – yashinlarini.
 U ayol tushida onasin o'pdi,
 Silagandek bo'ldi ajinlarini.

Qaldirg'och sir aytdi,
 Ko'klamdanmi yo
 Yoki hazin ishqning xabarlarini.
 Qaydadir unutdi
 O'zgacha dunyo –
 Orzusi bitilgan daftarlarini.

Bir yutum armonin simirdi ayol,
 Bilmaydi bu tushni qachon ko'rgandi.
 U uyg'ongan chog'i osmon yuzida
 Oyni chumolilar tashib yurgandi.

* * *

Ota, azon chaqir,
Ovul uyquda.
Alloh-u Akbar, de tushlari uchsini.
Yashil joynamozda qirlar mizg'iydi,
Tonggi puchmoqlardan kelar oq ko'chki.
Ota, azon chaqir,
Ovozingni sep
Lablari yorilgan tun rohlariga.
Nega buncha uzoq maftun bo'ldik, deb
Ko'z boylag'ich oqshom chiroqlariga.
Nigohim toldirdi yulduz - yonarqurt
Ko'ksimizda g'ijjak hislar to'lqini.
Avval yig'layotgan onamni ovut,
Ko'rpaga o'rab qo'y ukam ustini.
So'ngra azon chaqir
Nafasim qaytdi,
Subh shonlaridan ruhimiz qonsin.
Bir ajib ohangda chaqirgan payting
Alloh-u akbar, deb
Ovul uyg'onsin.

CHO'PON QIZ QO'SHIQLARI

1

Suruvning ortidan ergashadi dasht,
Saraton. Kovushim tuproq qoradi.
Soyalar bichadi vaqt ko'ylagini,
Gulxayri raqsiga qushlar boradi.

Shamol lablarida sibizg'a chalar,
Chaqinlar oqshomning bosinqirashi.
Arpa boshog'idek yulduzlarga goh
Qo'zichoqlar boqar uyqusirashib.

2

Osmon – to'rvaxalta
Qo'limni suqsam,
Parcha shom ilinar tishga bosgulik.
Chumoli karvoni o'z imlosida
Bitib borayotir neki yozgulik.

3

Huv darada "Go'ro'g'li" dan aytar bobom,
Etagida nabiralar chug'urlashgan.
Doston tinglab diydasida maysa ungan,
Qirlar sekin bag'irlashgan.

Jim kuzatgan,
So'ng otamning yigit yoshi
Shiddatida yulduzlarni g'aramlagan.

Shamol bo'lib dalalarning nafasida
Onamning qirq kokilini taramlagan.
Bu dashtlarda...

4

Qur-e, qur-e,
Chorlayapman qarashmaydi.
Ular o'ylar: tuyog'imga somon yo'li yarashgaydir.
Qur-e, qur-e, bu dashtlardan
Shu orzuda ketgan qancha.
Biri menmi,
Giyohlarning nomlarini unutguncha
Daydib keldim.
Suruv o'tgan yo'ldek changib ketgan ko'nghim,
Qaytib keldim...

45

Biz bebok kunlarda uchrashdik
Dahrning bo'g'zida nogahon.
Sen shahid ketganding, achinding –
Tirik jon ekansan, tirik jon.

Yelkamga qo'ndilar zarqanot
Falakning kavokib qushlari.
Dedim, ishq benajot, benajot –
Safaryo'l tulporlar kishnadi.

So'ng qaytdim, qichqirdi kunbotar,
Cho'karkan quyosh o'z qoniga.
Qachondir, albatta, behadik
Ruh bo'lib qaytaman yoniga.

MUNDARIJA

Aziz Said

Parvozga shaylangan qush ruhiyati.....	3
Qushga aylanmagan odam.....	6
“O, aprel...”	7
Ilk kromanyon odam va men.....	8
“Quyosh – oltin olma...”	9
“Xayolingni yoqib qo‘yibman shiftga...”	10
“G‘am quyilgan qadahman...”	11
“O, ruhimning hayqiriqlari...”	12
Feruzaga.....	13
“Sen afsun istaysan...”	14
“Oy – qaqnus pat...”	15
“Ey sayyodim, el kezding...”	16
“Zarafshon hayqirdi...”	17
“Osmon – uzilgan rishtalar qabristoni...”	18
“Huvillab boryapman, nurab boryapman...”	19
“Tunda sochim anhorday oqdi...”	20
“Bir bor ko‘zlarimga majnun bo‘lib boq”.....	20
“Do‘stim, adashtirdi bu yo‘l beayov”	21
...ga.....	22
“Oy – oltin qoshiqcha...”	22
“Osmon – ko‘kko‘l...”	23
“Ey olis samoda porlagan yulduz...”	24
“Osmonning ko‘zini cho‘qiydi bir qush...”	25
“Tun – siyohdon...”	25
Ukamga.....	26
Qaldirg‘ochman.....	27
Oroldagi ayol xirgoyisi.....	28

"Jim ildiz otasan qorachig'imda..."	29
"Boraman..."	30
"Mening osmonimga gulchambar taqdi..."	31
"Zaminning tilini bog'laydi..."	32
"Kuz – yog'mur shevasinda bitilgan maktub..."	33
"Chizsang..."	34
"Endi qushsan, endi odam men..."	35
"Qorachiqlarimdan uchadi..."	36
"Qafas sindi..."	37
"Zamharir ro'molin tang'iydi zamin..."	38
"Yomg'ir bo'l..."	39
"Kechalar adashdi, shomlar adashdi..."	40
"Ne tong..."	41
"Bir yutum shafaqni simirdi quyosh..."	42
"Ota, azon chaqir..."	43
Cho'pon qiz qo'shiqlari	44

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(O'zb)

N 79

N 79 Norchayeva, Madina.

Kaftdagi yo'l [matn]: *she'rlar* / M. Norchayeva.

– Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. – 48 b.

Adabiy-badiiy nashr

Madina Norchayeva

KAFTDAGI YO'L

She'rlar

Muharrir: *D. Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *F. Ermatov*

Sahifalovchi: *N. Soatov*

Musahhih: *Sh. Hakimova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

☎ (98) 128-30-04. e-mail: mashkhur-press@mail.ru

Bosishga 20.11.2020-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 ¹/₃₂.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 1,5.

Adadi: 10000 nusxa. Buyurtma №339.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.




Madina Norchayeva
1995-yil 7-mayda Qashqadaryo
viloyati Chiroqchi tumanining
Umakay qishlog'ida dunyoga kelgan.
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy
rassomlik va dizayn institutining
san'atshunoslik yo'nalishi 3-bosqich
talabasi. Zulfiya nomidagi Davlat
mukofoti sohibasi.

MADINA NORCHAYEVA

KAFTDAGI YO'L

"ADABIYOT"
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6472-6-8



9 789943 647268

